

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA PARALINGVISTIK ELEMENTLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Ismoilova Dinara Sherali qizi

Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili

O'zbekiston Davlat Jahon Tiillari universiteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahabar:

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi marosim va qadriyatlarida namoyon bo'luvchi paralingvistik elementlarning lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Har ikkala tilni taqqoslab, ularning o'xshash va farqli aspektlarini tahlil qilgan holda ma'lumot beradi. Chog'ishtirilayotgan tillarda Paralingvistik elementlarning marosim, tadbir, kundalik odatlarda og'zaki nutq bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatib beradi. Maqolada taqqoslash metodidan foydalanib, ikkala tilning paralingvistik elementlarning kommunikatsiyada ahamiyatini tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, paralingvistika, noverba Imuloqot, kinesika, fonatsiya, paragrafemika

KIRISH

insonlar biror narsa yoki holatga maqsad, xohish-istak va inkorligini bildirish uchun nafaqat gapirishadi, balki tilimizdagi paralingvistik birliklardan foydalanishadi. Paralingvistik birliklarga o'zaki nutq elementlari bo'lmagan – ovoz ohangi, tana holati, yuz ifodalarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Ular madaniy xulq-atvor va tilni bog'lovchi ko'prik hisoblanadi. Bundan tashqari, nutqni yanada ta'sirli, ifodali qiladi va fikrimizni ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Birgina so'zning har turli intonatsiya va mimika bilan aytilishi butun bir gapni yoki nutqni o'zgartirib yuboradi. Odamlar to'y, marosimlarda, oddiy hayotida bundan ko'p foydalanishadi. Lekin har xil madaniyat va davlatlarda milliy noverbal muloqot va paralingvistika bir-biridan farq qiladi.

Lingvokulturologiya va paralingvistika terminlarining nazariyalari

Lingvokulturologiya - til va madaniyat, o'zaro madaniy aloqa masalalarini ilmiy asosda tadqiq etadi. Bu soha faqat madaniyat bilan emas, balki u orqali turli milliy urf-odatlar, diniy hodisalar, milliy konseptlar, dunyoni til orqali ongli his qilish vositalarini o'rganadi. Dunyoning til xaritasi, umuman, ularning insonlar ongidagi mantiqiy ifodasi bilan mos keladi. Bu masalani keng va chuqur o'rganish lingokulturologiya va lingvokognitologiya bilan bog'liqdir.

Paralingvistika - (grekcha para - "atrof", lingvistika - "fan", ya'ni "lingvistika tevaragidagi fan degan ma'noni anglatadi") tilni boshqarib borishda qo'llanuvchi vositalarni o'rganadi.

Paralingvistika 3 turga bo'linadi: kinesika, ya'ni imo-ishora, mimika, inson ta'na a'zolarini qimirlatish vositasida biror tushunchani ifodalash; fonatsiya, ya'ni inson ovoqidagi o'zgarishlar, masalan, "oh", "uh", "voh" kabi ehtirosli so'zlarni ovoz yordamida ifodalash; paragrafemika, yozuvda shaxsiy belgilar orqali turli tushunchalarni ifodalash.

To'y va marosimlarda ingliz va o'zbek tillaridagi paralingvistik elementlarini taqqoslash

To'y va marosimlar inson hayotida ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ega. Har bir xalqning o'ziga xos madaniy marosimlari mavjud va ular ajdodlarning avlodlarga qoldiradigan madaniy meroslaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek xalqlarining to'y va dafn marosimlaridagi paralingvistik jihatlarini lingvokulturologik jihatdan tahlil qilgan holda o'xshash va farqli tomonlari o'rganib chiqiladi. Bu nafaqat tilshunoslik fani uchun balki ikki til o'rtasidagi madaniy va ijtimoiy tadqiqotlar uchun ham muhim sanaladi.

Dunyoda turli xalqlar mavjud va ularning marosimlari bir-biridan farq qiladi, ammo hammasining asosiy maqsadi xalqni birlashtirish va oilaviy qadriyatlarni saqlab qolish. Ingliz va o'zbek tillarining to'y va dafn marosimlarida insonlarning kommunikatsiya birliklarining bir-biriga o'xshash va farqli tomonlari bor. Ular faqat gapirish bilangina emas, balki paralingvistik elementlar: ovoz ohangi, mimikalari, tana harakatlari orqali o'z ekspressiv munosabatlarini ko'rsatib berishadi.

Ingliz va o'zbek tillarida paralingvistik elementlarni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinib, badiiy va adabiy asarlardan parchalar beriladi. O'zbek to'y marosimlarida ko'proq hurmat, or-nomus kabi tushunchalarga urg'u beriladi. Bunga misol sifatida o'zbek to'y marosimlarining mashhur urf-odatlaridan biri Kelin salomni keltirib o'tish mumkin. Bu urf-odatdan maqsad yangi kelinga kuyovning oilasi, uyi, qarindoshlarini tanishtirish hisoblanadi. Ularni hurmat qilgan holda kelin ta'zim qiladi va qarindoshlari turli sovg'alar berishadi. Katta yoshlilar esa qo'llarini duo uchun ochib, yangi oilaga yaxshi tilaklarni tilashadi. Masalan,

“Sotti: Egilib salom bering!

...

Nigora (Farmonbibi oldiga kelib, egilib salom beradi). “Menni kechiring, oyijon, yoshlik qilibman.”

(Said Ahmad “Kelinlar qo'zg'oloni”)

“Kumush salom berdi...Kumush uyalib zo'rg'ag'ina salom berdi va Yusufbek hojining yaqiniga kelib bo'yin

egdi. Hoji qo'li bilan Kumushning yelkasiga qoqib suydi va Kumushning manglayiga tegizib olgan o'z qo'lini o'pdi:

— Bizning Marg'ilonda ham shunday kelinimiz bor ekan-ku, biz bilmay yurg'an ekanmiz-da, — deb tevaragiga qarab kulindi va qo'lini duog'a ochdi”.

(Abdulla Qodiriy “O'tkan kunlar”)

O'zbek to'ylari urf-odat va an'analardagi paralingvistik elementlar: egilib salom qilish, duoga qo'l ochish kabilar insonlarning bir-biriga nisbatan humatini bildirish uchun qo'llanilgan.

Ingliz tili paralingvistik elementlari o'zbek tilidan farq qiladi. Ular hurmatga nisbatan o'zining his-tuyg'u, muhabbatini bildirishni ustuvor hisoblaydi. Ular to'ylarida ko'proq kelin va kuyovga urg'u berishadi. Masalan, nikoh kuni kelin va kuyov bir-biriga uzuk taqishadi va buni uzoq muddatli va barqaror munosabat ramzi sifatida qabul qilishadi. Jamiyatga o'zlarining rasmiy ravishda ulanganini bildirish uchun uzuk taqishadi.

Ingliz tilida erkaklar o'z salomini bildirish uchun bosh kiyimini, ya'ni shlyapasini yechishadi va Yevropa davlatlarida bu eng keng tarqalgan madaniyat turi hisoblanadi.

“...my lord's. I give them with this ring,

[Handing him a ring]

Which when you part from, lose or give away,

Let it presage the ruin of love” (William Shakespeare “ The Merchant of Venice”)

“Let it presage the ruin of love” bu soʻzlar orqali taqilgan uzukning ahamiyatini bilish mumkin.

Xulosa.Ingliz va oʻzbek tillarining noverbal muloqotda ishlatayotgan paralingvistik elementlarining oʻxshash va farqli jihatlari mavjud. Toʻy marosimida inglizlar his-tuygʻuni ustun hisoblashi uzuk taqish marosimi orqali yoritildi. Oʻzbek tili paralingvistikasida boshqalarga hurmat yetakchi rol oʻynashini Kelin salom orqali ifodalandi. Har ikkala til paralingvistikasida salom berish madaniyati bir-biriga oʻxshash.Ikkala til paralingvistik elementlari lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinib, imo-ishora, mimika, tana harakatlari nafaqat inson his-tuygʻularini koʻrsatib bermoqda, balki tillarning oʻziga xos madaniyatini namoyon qilmoqda. Ikkala tilning madaniyatlari bir-biriga oʻxshash , ammo har turli paralingvistik birliklar orqali ularni ifoda qilishmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Mamatov,A Zamonaviy Lingvistika Toshkent: “Tafakkur avlodi”,2020 8-166
2. Abdulla Qodiriy Oʻtkan kunlar ziyo.uz.com,2007 179-180-220
3. Said Ahmad Kelinlar qoʻzgʻoloni ziyo.uz.com,2007 179-180-220
4. Xolmonova,Z Tilshunoslik nazariyalari Toshkent: Shafoat Nur Fayz,2020. 221-222-256b
5. Shakespeare The Merchant of Venice, Folger Shakespeare Library edited by Barbara A.Mowat and Paul Westine, 113-203